

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:44 (67209)
2018-yil 29-oktabr

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092

QASHQADARYOGA SAFAR



Abdulla Oripov nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab-internatining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Muqaddas Abdujabborova joriy yil «O'qituvchi va murabbiylar kuni» arafasida davlatimizning yuksak mukofoti – «Shuhrat» medali bilan taqdirlandi.

Aziz o'quvchilar, xabaringiz bor, gazetamizning shu yil 1-oktabr sonida «Boylikni bolalikdan asrang!» hamda «Kim ko'p kitob o'qiydi?» nomli tanlov g'oliblari ro'yxatini e'lon qilgan edik. G'oliblar hamda ularning ustozlarini o'zlari tahsil olayotgan ta'lim maskanlarida taqdirlashni lozim topdik. G'oliblar orasida qashqadaryolik tengdoshingiz ham bor edi.

Shu bois, ilk safarimiz Qashqadaryo viloyatiga bo'ldi. Yo'l-yo'lakay viloyat maktablarida ham bo'lib, o'quvchi va ustozlarning hayoti va faoliyati bilan qiziqdik.

KO'ZLARIMGA SIG'MAS DUNYOSAN, QIYOSI YO'Q QASHQADARYOSAN!

2-bet



BIZ «TONG YULDUZI» O'QIYMIZ!

Dilshodbek RAHMATULLAYEV,
Yakkabog' tumanidagi 13-umumta'lim maktabining
10-sinf o'quvchisi:

– Men «Tong yulduzi» gazetasida e'lon qilingan «Boylikni bolalikdan asrang!» tanlovida ishtirok etdim. Minglab o'quvchilar orasidan meni g'oliblikka munosib ko'rishganidan behad mamnunman. Qolaversa, bu g'oliblik maktabdoshlarim va ustozlarimga olam-olam quvonch baxsh etdi. 2019-yilda ham «Tong yulduzi»ga obuna bo'lishga kelishib oldik.



Ma'naviy hayotda ham amaliy
hayotdagidek kimki bilinga tayansagina,
to'xtovsiz kamol topadi.

Tong
yulduzi

KO'ZLARIMGA SIG'MAS DUNYOSAN, QIYOSI YO'Q QASHQADARYOSAN!



BIZ ABDULLA ORIPOV MAKTABIDA O'QIYMIZ,

**Bugun Abdulla Oripov no-
midagi ixtisoslashtirilgan
maktab-internati o'quvchilarining quvonchi cheksiz.
Boisi, ustozlari, ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
Muqaddas Abdujabborova 1-oktabr - O'qituvchi va
murabbiylar kuni arafasida davlatimizning yuksak
mukofoti - «Shuhrat» medali bilan taqdirlandi.**

- deydi faxr bilan qashqadaryolik o'quvchilar

O'quvchilar o'z ustozlari
haqida to'liqlanib so'zlab
berishdi. Biz esa ularning dil
so'zlarini birma-bir qog'ozga
tushirdik.

Ular shu yilning yanvar
oyida muhtaram Preziden-
timiz ushbu maktabga tashrif
buyurganlarida, aynan

Muqaddas opa tomonidan
videomuloqot-mushoira
dars tashkil etilgani haqida
zavqlanib gapirib berishdi.
Ushbu videomuloqot-musho-
irada Nukusdagi Ibroyim
Yusupov, Andijondagi Mu-
hammad Yusuf, Jizzaxdagi
Hamid Olimjon va Zulfiya-

xonim maktabining ijodkor
o'quvchilari ham ishtirok
etishgani haqida faxr bilan
so'zlashdi.

Mohir pedagog dars ja-
rayonlarida o'zi tayyorlagan
150 dan ortiq ko'rgazmali
qurollardan mahorat bilan
foydalanadi. Shuningdek,
ustoz muallifligidagi «Uch
avlod Abdullasi» tadbir sse-
nariysi, «Ona tili va adabiyot
fani darslarida mahalliy ijod-
korlar ijodidan foydalanish»,
«Olmosh - so'z turkumi»
she'riy dars ishlarni mav-
zularidagi o'quv-uslubiy qo'l-

lanmalar viloyat miqyosida
ommalashtirilgan. Oliy toifali
ustozning ko'plab o'quvchilari
fan olimpiadasi va «Bilim-
lar bellashuvi» tanlovlarida
muvaffaqiyatli ishtirok etib
kelmoqdalar.

- Maktab-internatimiz
O'zbekiston Qahramoni,
xalq shoiri Abdulla Oripov
nomini abadiylashtirish, ona
tili va adabiyot fani bo'yicha
qobiliyatli o'quvchilarni tan-
lash, ular iste'dodini yana-
da rivojlantirish maqsadida
o'tgan yili tashkil etilgan
edi, - deydi maktab-internat

direktori Ubaydullo Oripov. -
Ta'lim maskanimiz 150 nafar
o'quvchiga mo'ljallangan
bo'lib, 50 o'rinni yotoqxon
hamda oshxona, 210 o'rinni
faollar zaliga ega. O'quv bino-
sida 15 ta o'quv fan xonalari,
kutubxona tashkil etilgan.
Binoning 1-qavatida Abdulla
Oripov muzeyi tashkil etilgan.
O'quvchilarimizning barchasi
tirishqoq, o'qib-o'rganishga
intiluvchan o'g'il-qizlar. Biz
ham ular uchun barcha sha-
roitlarni yaratishga harakat
qilmoqdamiz. Ular orasidan
kelgusida Abdullalar, Zulfi-
yalar chiqishiga ishonamiz.

- Men Abdulla

Oripov nomidagi maktabda o'qi-
yotganimdan, tajribali ustozlardan saboq
olayotganimdan xursandman. A'lo baholarga
o'qish bilan birga, Abdulla Oripov she'rlarini
rus tiliga tarjima qilyapman. Yaqinda sevimli
shoirimning «Qushcha» nomli she'ri rus
tiliga o'girdim, - deydi 6-sinf o'quvchisi
Muslima Shokirova.

- Men shunday jan-

natmakon yurtida tug'ilganimdan
faxrlanaman. Sportning kikkoksing
yo'nalishida ko'plab musobaqalarda
ishtirok etganman. 4 marta O'zbekiston,
9 marta Qashqadaryo viloyati chempio-
ni bo'lganman, - deydi 6-sinf
o'quvchisi Shermuhammad
Tojiddinov.

- Men she'ri-

yatga qiziqaman, - deydi 6-sinf
o'quvchisi Sarvara Shavkatova. Yaqinda
«Shukrona» deb nomlangan she'r yozdim,
sizga ham o'qib beraman:
Yurtimdayin musaffo osmon,
Ayting, yana qayda bor?
Onamdayin mehribon,
O'zbekiston qayda bor?!

«HAFTA LIDER»LARI KO'PAYMOQDA

Qarshi shahridagi Nurbog' ko'chasida
joylashgan 41-IDUMga kirib borganimizda,
«Kitobxonlar bayrami» bo'layotgan ekan.

O'quvchilarning mutolaaga bo'lgan qiziqishlari, o'qigan
kitoblari yuzasidan berilgan savollarga tezkorlik bilan
javob berishlarini ko'rib, bu ko'chani nomi Nurbog' deb
atalishi bejiz emas ekan-da, degan fikrga bordik. Bir-biri-
dan bilimdon o'g'il-qizlar orasida eng zukkosi 7-«V» sinf
o'quvchilari deb topildi.

2017-2018-o'quv yilida maktab-
ning «Ma'naviyat yulduzlari» jamoasi
«Eng kitobxon maktab» respublika
ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida
1-o'rinni egallab, respublika bosqichi-
ga yo'llanma olgan ekan.

- Maktabimizda kitobxonlar juda
ko'p. Biz ulardan da ko'proq kitob
o'qishga harakat qilamiz. Bugungi
g'oliblik sinfdoshlarimga yanada
izlanish kerakligini o'rgatdi, - deydi
7-«V» sinf o'quvchilari.

Mazkur maktab matematika fanini
chuqurlashtirib o'qitishga yo'naltirilgan
bo'lib, ta'lim o'zbek va rus tillarida olib
boriladi. Maktabda oliy va o'rta-max-
sus ta'lim muassasalariga o'qishga
kiradigan yoshlar uchun qo'shimcha
mashg'ulotlar ham olib boriladi.

Shuning uchun ham
maktab bitiruvchilarining
80 foizi oliygo'harlarga o'qishga kirish
baxtiga muvaffaq bo'lmoqda.

- Kitobni quyoshga qiyoslasak,
mubolag'a bo'lmaydi. Chunki qu-
yosh insonning jisman ulg'ayishi-
da qanchalik katta ahamiyat kasb
etsa, kitob ma'naiy barkamollikka
erishishimizda muhim o'rin tutadi.
Kitob mutolaasida insonning aqli
charxlanadi, ongi, dunyoqarashi
shakllanadi. Shunday ekan, uni chin
yurakdan ma'naviy xazina, haqiqiy
boylik sifatida sevil, qadrlab mutola-
la qilish lozim, - deydi 10-«V» sinf
o'quvchisi Kumush Elmurodova.

- Buyuk shoirimiz Cho'lpon:
«Adabiyot, madaniyat yashasa,

millat yashaydi», deb yozgan edi.
Darhaqiqat, bugungi globalashuv
davrida yoshlar qalbidagi milliy g'urur,
watanparvarlik kabi tuyg'ularni yana-
da mustahkamlash maqsadida olib
borilayotgan ishlardan eng kattasi
bu kitobxonlikdir. Bu borada mak-

tabimizda keng qamrovli ishlar olib
borilmoqda. «Eng yaxshi kitobxon
o'quvchi», «Kitobxonlar haftaligi»,
«Bir bolaga uch kitob» kabi loyihalar
o'tkazilayotgani shular jumlasidan,
- deydi 11-«A» sinf o'quvchisi Aziza
Tojiboyeva.

Qashqadaryolik bilimdon, zukko o'quvchilar bilan sira xayrlash-
gimiz kelmadi, ammo ularning qimmatli vaqtini ham olishni ista-
madik. Chunki bu bilimga chanoq bolalarning fikr-xayoli faqat va
faqat o'qish va izlanishda edi. Shu bois, navbatdagi uchrashuv va
suhbatlarimiz gazeta orqali bo'lishiga kelishib oldik.

Sarlavhani o'qib, ixtirochi tengdoshingizga rosa havas qilayotgandirsiz-a? Qolaversa, «U yaratgan yangilik nima ekan?» deya qiziqayotganingiz ham aniq. Agar shunday bo'lsa, maqolamizni diqqat bilan o'qishni tavsiya qilamiz. Ishonamizki, bundan sira afsuslanmaysiz.

7-SINF O'QUVCHISI YANGI IXTIRO YARATDI

Inson qadami yetgan joy obod bo'ladi, inson qadami yetgan joy... Aziz o'quvchilar, nimaga ishora qilayotganingizni anglagandirsiz-a? Ha, bugun dunyoda ro'y berayotgan tabiiy ofatlar, ekologik fojialar, ona tabiat bilan bog'liq turli ko'ngilsiz hodisalar aynan insonlarning atrof-muhitga nisbatan noto'g'ri munosabatining «mevasi»dir. Tan olib aytilik, XX-XXI asrda odamzod o'simlik va hayvonot dunyosi, tiriklik manbai bo'lmish obihayotga shunchalik ozor yetkazdiki, buni tasavvur qilishning o'zi ayanchli. Uzoqqa bormaylik, ayni paytda Orol dengizi muammosi butun insoniyatni jiddiy tashvishga solayotgan global xavfdir. Achinarlisi, bugun suvi qurigan eski dengiz o'zanidan ko'tarilayotgan tuzli chang qoldiqlari dunyoning uzoq o'kalaridan topilmoqda.

Xo'sh, bu kabi ekologik muammolarning oldini olish uchun nima qilmoq kerak? Qanday yo'l tutsak, ona tabiat bizdan rozi bo'ladi? Bu savolning javobi oddiy: eng avvalo, har birimiz o'zimiz yashayotgan xonadon, mahalla, qishloq va shahrimizni ozoda saqlamog'imiz, maishiy chiqindilarni to'g'ri kelgan

joyga tashlamasligimiz, bu bilan esa borliq musaffoligiga o'z hissamizni qo'shishimiz dardkor.

Quvonarlisi, yurtimizda ona tabiatni sevuvi, uning musaffoligiga o'z hissasini qo'shishni istaydigan yoshlar talaygina. Navoiy viloyati, Karmana tumanidagi 21-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi Suhrob Haydarov ana shunday izlanuvchan tengdoshlaringizdan. Ushbu yosh iqtidor egasi yaqinda ajoyib ixtiro yaratdi. «Aqlli chiqindi» deb nomlangan mazkur loyiha atrof-muhit ozodaligini saqlashga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Ushbu yangilik chiqindi konteynerlarini avtomatlashtirish jarayonini o'z ichiga olib, bunda qutiga maishiy chiqindi olib borilganda, uning og'zi avtomatik ravishda ochiladi va qayta yopiladi. Bu bilan chiqindi hidining atrofga tarqalmasligi ta'minlanadi.

– Loyihaning afzalligi shundan iboratki, chiqindi qutisining ichiga gazsensor, ya'ni tutun



sezuvchi moslama o'rnatiladi, – deydi ixtiro muallifi Suhrob Haydarov. – Agar qutiga chala yongan sigaret yoki biror boshqa mahsulot qoldiqlari tashlansa, moslama o'sha zahoti suv purkay boshlaydi. Bu bilan yong'in kelib chiqishi va zararli tutunlarning yon-atrofga tarqalishining oldi olinadi.

Mazkur loyiha taqdimoti joriy yil 24-oktabr kuni viloyat «Yoshlar markazi»da tashkil etilgan «Hokim va yoshlar uchrashuv»ida bo'lib o'tdi. Viloyat hokimi «Aqlli chiqindi» loyihasini ma'qulladi va uni amalga oshirish haqida topshiriq berdi.

Sa'dullo TURSUNOV

Lesson 44

COST OF THE BELL

Everyday, a shepherd used to take his cows for grazing. He had tied a bell to each of the cows he had so that he could know where they were grazing. The best cow had costly bell tied around her neck.

One day, stranger was going through the pasture. Seeing the costly bell around the cow's neck, he went to the shepherd and asked if he would sell the bell. Out of greed, the shepherd sold the bell. But now he could not know where his best cow was grazing. One getting an opportunity, the stranger stole the cow. Thus, the shepherd lost his best cow just because of his greed.

Dinora ABDULLAJONOVA

HELP ME PLEASE

I made up some English words. My teacher will check my mistakes. Please, help me unless my professor will put me bad mark.

1. I am vegetarian – ...
2. Today is the 18 of october. My sisters birthday – ...
3. my brother and I go to the scholl together – ...
4. How much is this – ...
5. Abdusaid is a good hockey player – ...

HAPPY PREPOSITION

- I was born ... 1993.
- I'll see her ... the party.
- What do you usually do ... Monday?
- I'll meet you ... lunch time.
- S he usually cooks ... weekend.

Ma'mura G'ULOMOVA

Iloji boricha aqlingni ko'p ishlatishga urin.
L. N. TOLSTOY

Men maktabimizda tashkil etilgan «Dilmunchoq» nomli yosh qalamkashlar to'garagi a'zosiman.

AJOYIB UCHRASHUV BO'LDI

Bu to'garakka ona tili va adabiyot fani o'qituvchimiz Mirzohid Shavkat rahbarlik qiladi. Yaqinda ustozlarimiz tashabbusi bilan ta'lim dargohimizda ajoyib uchrashuv o'tkazildi. Tadbirga O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi Xosiyat Bobomurodova, tanilgi shoira Zuhra Begim, faxriy jurnalist Anora Norboyeva, jurnalist Dilnoza opa tashrif buyurishdi. Ijodkorlar she'r o'qishdi,



o'quvchilar jo'r bo'lishdi. Shu tarzda she'r-xonlik avjiga chiqdi. So'ng, mehmonlar mahorat darslari o'tishdi. Men shoirlar qalamiga mansub she'rlardan o'qidim. Shunda Zuhra Begim menga, «Sen ko'proq o'qib, izlanib, mashq qilgin», dedi. So'ng, biz ularga turli savollar berdik. Ijodkor opalarimiz to'garak a'zolaridan birining «Shunday yashash kerakki...» jumlasini ajoyib tarzda davom ettirishdi. Men bu uchrashuvdan bir olam ilhom oldim.

Diyora YALG'OSHOVA,
Samarqand viloyati, Qo'shrabot tumanidagi
42-umumta'lim maktabining 5-sinf o'quvchisi

INGLIZ TILINI O'RGANAMIZ

HIDDEN WORDS

U	M	A	P	R	I	C	O	T	K	P	C	F
A	P	P	L	E	S	H	J	Z	I	O	A	S
Q	W	E	R	C	H	E	R	R	Y	M	V	T
C	C	P	A	J	M	E	L	O	N	E	W	R
L	A	O	E	C	P	S	N	R	X	G	N	A
E	Y	R	C	A	H	E	K	A	B	R	U	W
M	U	E	R	O	R	H	I	N	P	A	T	B
O	R	G	I	O	N	F	W	G	L	N	U	E
N	A	N	Y	L	T	U	I	E	U	A	M	R
B	A	N	A	N	A	F	T	Z	M	T	K	R
Y	J	S	T	O	M	A	T	O	X	E	A	Y
I	D	G	W	Q	C	U	C	U	M	B	E	R
H	P	I	N	E	A	P	P	L	E	V	I	A



Painter: Sumbula MELIMURODOVA

Umida OMONTOSHEVA,
Uzbek State World Languages University

LET'S LAUGH

teacher sorry, I have not done my homework.

Teacher: – How can we keep the school clean?

Student: – By staying at home.

Teacher: – Whoever answers my next question, can go home. One boy throws his bag out the window.

Teacher: – Who just threw that?

Boy: – Me! I'm going home now.



Pupil: – Teacher, Can I be punished for something, I have not done?

Teacher is shocked: – Of course not, my dear, it is not unfair.

Pupil is relieved: – Ok, my

Muhammadsharif FAYZULLAYEV

O'quvi bor ulg'ayar,
Uquvi yo'q sarg'ayar.

Tong
yulduzi

TOZA QO'LLAR – SALOMATLIK GAROVI

«...Bir kuni Stif ismli bolakay maktabdan kelibdi-yu, qo'llarini yuvishga erinib, darrov ovqatlanishga o'tiribdi. Buni sezgan ona Stifning qo'llarini yuvmagani uchun tanbeh beribdi va deraza oynasiga qo'lini kafti bilan qo'yishni aytibdi. Stif onasi aytganidek, oynaga kaftini qo'yibdi... Oradan bir necha kun o'tgach, ona-bola oynadan mog'or zamburug'lari o'sib chiqqanini ko'rishibdi».

Bu ma'lumot internet manbalarida keltirilgan bo'lsa-da, insonni doim tozalikka, ozodalikka undaydi. Bilasizmi, yer yuzidagi insonlarning yuqumli kasalliklarga chalinishiga, aksariyat kir qo'llar sabab bo'larkan. Bugun bu mavzuga bejiz to'xtalmadik. Sababi, o'tgan hafta yer yuzi bo'ylab «Toza qo'llar kuni» bo'lib o'tdi. Bu sanani o'quvchilar orasida ommalashtirish, ularni bolaligidan tozalikka, pokizalikka o'rgatish maqsadida turli maktab-u bog'chalarda bu bayram nishonlandi.

Jumladan, ushbu sana Samarqand viloyatining Tayloq tumanidagi 22-umumta'lim maktabida ham ko'tarinki ruhda o'tkazildi. Maktabning Yoshlar ittifoqi yetakchisi Mashhura Abdullayeva, maktab hamshirasi hamda salomatlik va ekologiya yo'nalishi sardori Mohinur O'lmasova boshchiligidan davra suhbatini bo'lib o'tdi. Suhbatda o'quvchilarga toza qo'llar – salomatlik garovi ekanligi, agar ozodalikka rioya qilinmasa, o'sib kelayotgan organizm uchrashi mumkin bo'lgan turli kasalliklar bilan xastalanishi haqida so'z bordi. So'ngra, bolajonlar qo'llarni yuvish qoidalariga amal qilishga, doimo ularni toza tutishga va'da berishdi.

Bir tumanda qo'sh tadbir

XUSH KELIBSAN, MEHRJON!

Bolajonlar, ayni kunlarda hosilini xirmonga uygan dehqonbobo daladagi ishlarini bitirib, yerni bahorgi ekinga tayyorlamoqda. Aynan shu paytda xalq orasida «Hosil bayrami» yoki «Mehrjon» bayramlarini nishonlash allaqachon an'anaga aylangan.



Tumandagi 17-umumta'lim maktabi o'quvchilari ham kuzgi bayramni munosib kutib olish maqsadida «Mening o'lkamda kuz» shiori ostida «Mehrjon» tanlovini o'tkazdi. Bellashuvga maktabning «Ekosan klubi»

sardorlari boshchilik qildi. Ta'lim maskanining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari X.Egamova, o'quv ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari N.Baqoyeva so'zga chiqib, barchani hosil bayrami bilan qutladilar. Maktab hovlisida kuzgi meva-yu sabzavotlardan iborat ko'rgazma tashkil qilindi. Ko'rgazmani aylanar ekanisiz, karving san'ati yordamida turli shakllarga kelgan tarvuz-u qovoqlarni ko'rib, ko'zingiz quvnaydi. Ayniqsa, 7-sinf o'quvchilarining tayyorlagan ko'rgazmasi barchaga manzur bo'ldi va ular bir ovozdan g'olib deb topildilar. G'oliblar maktab direktori Zilola Yuldasheva hamda Yoshlar ittifoqi yetakchisi Gulhoyo Rahimova tomonidan faxriy yoriqlar bilan taqdirlandilar.

Yurtimizda hali kuz fasli hukmron. Balki sizning maktabingizda ham shunday tadbirlar o'tkazilayotgandir? Shunday ekan, bu haqda bizga yozib yuborishni unutmag.

Ozoda TURSUNBOYEVA

Har bir kasb egasining tasavvurimizda o'z qiyofasi bo'lganidek, yurtimizdagi ta'lim maskanlarining ham o'ziga xos qiyofasi, ko'rinishi mavjud. Yam-yashil archazor-u gulzor oralab kirib boriladigan bunday binolarga ko'zimiz tushganida, hoynahoy maktab bo'lsa kerak, deb qo'yamiz beixtiyor.

YANGI KUNNI BADANTARBIYA BILAN BOSHLAYDIGAN MAKTAB

22-oktabr – xalqaro maktab kutubxonalari kuni munosabati bilan ta'lim dargohlari kutubxonalari holatini o'rganish maqsadida poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 324-umumta'lim maktabiga ham gullar oralab kirib bordik. Kuz kunlari bo'lishiga qaramay chamandek ochilgan rango-rang gullarning ko'rk, rayhonlarning muattar ifori kayfiyatimizga ko'tarinkilik bag'ishladi.



Yo'lakda iliq tabassum bilan bizga peshvoz chiqqan maktab rahbari Baxtiniso opa Po'latova maqsadimizni anglagach, to'g'ri maktab Axborot-resurs markazi tomon boshladi. U xonada o'quvchilar uchun yaratilgan shart-sharoitlarni, qulayliklarni ko'rib, ochig'i, ushbu maktabning kitobxon o'g'il-qizlariga havasimiz keldi.

– Ushbu markaz Prezidentimizning beg'araz yordami tufayli tashkil etildi, – deya so'z boshladi Baxtiniso opa. – Keling, yaxshisi, sizga bir boshdan gapirib bera qolay. 2017-yil 26-mayda Shayxontohur tumani bir guruh faollarining Davlatimiz rahbari bilan bo'lgan uchrashuvda men ham ishtirok etgandim. Maktab kutubxonalari yosh avlod, xususan, qizlarimiz tarbiyasida tutgan o'rni haqida, bugungi kitobxon qiz – ertangi ziyoli kelin, ona, qaynona bo'lib ulg'ayishi, u o'z oilasida ham kitobxonlik madaniyatini shakllantirishi haqidagi fikrlarim Yurtboshimizga ham manzur bo'lib, maktabimiz kutubxonasi uchun ikki yuz million so'm beg'araz mablag' ajratilgandi. Biz ushbu mablag'lar hisobidan ushbu ARMni tashkil qildik. Kutubxonamizni o'zbek va jahon adabiyoti durдона asarlari bilan boyitdik. Tuman hokimi homiyligida Yoshlar ittifoqining namunaviy xonasini tashkil qildik. Yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi tomonidan olti dona magnit doskasi sovg'a tariqasida ajratilgani yoshlarimiz kayfiyatini yanada ko'tarib yubordi. Tashabbuskor o'quvchilarimiz bugun ushbu xonada zo'r shijoat bilan faoliyat yuritmoqdalar. Kutubxonachilarimiz Nasiba Nurmuhamedova, Zilola Inagamova boshchiligidan o'tkazib kelinayotgan ko'plab tadbirlar, ko'rik-tanlovlar esa kitobxonlik targ'ibotiga xizmat qilmoqda.

Darhaqiqat, o'quvchilar bilan suhbatlashganimizda, ushbu ta'lim maskanida biror-bir tadbir o'tmaydigan haftaning o'zi bo'lmasligini ta'kidlashdi. Ular «Ma'rifat g'unchalari» nomli tanlovda maktabning birinchidan to'qqizinchi-

gacha bo'lgan barcha sinf o'quvchilari faol ishtirok etishgani, ushbu tanlov tuman miqyosida ommalashtirilib, «Javondagi javohirlar» nomi bilan tuman, shahar miqyosida ham o'tkazilgani, yakunda har bir o'quvchi «Men kitobni nima uchun o'qiyman?» degan savolga o'z fikrlarini bayon etishgani, tanlovda aynan shu maskan o'quvchilari 1-o'rinni qo'lga kiritishgani haqida to'lqinlanib so'zlashdi.

«2018-yilning eng kitobxon maktabi» tanlovida esa 2-o'rinni egallashganini aytib, kelasi yili 1-o'ringa munosib bo'lish uchun yanada ko'proq kitob o'qishayotganini gapirishdi. E'tiborimizni tortgan yana bir jihat shu bo'ldiki, maktab kutubxonasini boyitish maqsadida yaxshi bir an'ana yo'lga qo'yilgan, ya'ni

yuqori sinf o'quvchilari maktabni tamomlash arafasida kutubxonaga kitoblar sovg'a qili-sharkan. Bitiruvchilar tomonidan sovg'a qilingan «O'zbek tilining izohli lug'ati», «Mumtoz adabiy asarlar lug'ati» kabi kitoblar bugungi kunda ularning uka va singillari uchun zaruriy qo'llanma bo'lib xizmat qilayotgan ekan.

– Fanlardan o'tiladigan darslar, mashg'ulotlardan tashqari yana ko'plab sport musobaqalari, diqtantlar tanlovlari, «Vatan ostonadan boshlanadi», «Shoirga ehtirom» kabi tadbirlar sizlarni toliqtirib qo'yamaydimi? – savolga tutamiz o'quvchilarni.

– Yo'q, aksincha, bunday tadbirlar o'quvchilik davrimizni yanada mazmunli, maroqli, qiziqarli o'tishiga hissa qo'shmoqda, – deyishdi ular bir ovozdan. – Qolaversa, har bir kunningiz direktorimiz boshchiligidan badantarbiya mashqlari bilan boshlanadi. Bajargan jismoniy mashqlarimiz bizga kun davomida tetiklik baxsh etadi...

Tasodifni qarangi, o'quv dargohida shu kuni o'tkaziladigan yana bir tadbirning usidan chiqib qolibmiz. Ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari Nasiba Musayeva, Barno Zokirova, Feruza Islomova, Muqaddas Mamatova, Shohista Zaripova boshchiligidan tashkillashtirilgan tadbirda barcha sinf o'quvchilari birdek faol ishtirok etishdi. Tadbirni ochib bergan maktab rahbari ona tilimizga bo'lgan munosabat inson o'zligini anglashining eng muhim sharti ekanligini ta'kidladi. O'quvchilarni millatimiz va ma'naviyatimiz ko'zgusi bo'lgan o'zbek tilimizni qadrlashga, nufuzini oshirishga, sofigini asrashga, rivojiga hissa qo'shishga chorladi. Tadbirda o'quvchilar tomonidan ijro etilgan she'rlar, sahna ko'rinishlari, kuy va qo'shiqlar ham ana shu ezgu maqsad yo'lida tashlangan yana bir qadam bo'ldi.

Feruza JALILOVA

SO'Z – MAKTAB RAHBARLARIGA!

Aziz o'quvchilar! Barcha ustozlaringiz, hattoki maktab rahbarlari ham xuddi siz kabi tinmay bilim olishlarini, malakalarini oshirib borishlarini bilasizmi? Yaqinda poytaxtimizdagi A. Avloniy nomidagi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish markaziy institutiga turli viloyatlardagi maktab direktorlari ana shu maqsadda jam bo'lishdi. Fursatdan foydalanib, biz ham ular bilan ko'rishishga, dildan suhbatlashishga oshiqdik. Jonkuyar ustozlarimiz bizni ko'rib, bolalikdagi qadrdonlarini ko'rgandek quvonishdi. «Tong yulduzi» o'quvchilari safini yanada kengaytirishga va'da berishdi. Maktab rahbarlarining ayrim fikr-mulohazalarini sizga ham ilindik.

MATBUOT BIZGA KO'MAKCHI

Qunduzxon ONOROVA, Farg'ona viloyati, Dang'ara tumanidagi 11-umumta'lim maktabining o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari:

– Biz shu jamiyatda yashab mehnat qilar ekanmiz, hayotimizga doir barcha yangiliklar, qaror-farmonlardan xabardor bo'lmog'imiz lozim. Bu ishda esa bizga matbuot ko'mak beradi. Xuddi shunday o'quvchilarimiz ham o'z gazetalarini o'qib borishsa, a'lochi o'quvchilarga havas qilishadi, ulardan o'rnak olishga intilishadi. Qalamkash tengdoshlari ijodini kuzatishadi, ibrat olishadi. Bolalar yozuvchi va shoirlarining yangi asarlari bilan tanishish imkoniga ega bo'lishadi. Shunday ekan, matbuot biz va farzandlarimiz kamoloti uchun juda muhim. Va ularni o'qib borishdan hech qachon to'xtamaymiz.



DO'STLIGIMIZ MUSTAHKAMLANADI

Ulug'bek OLIMOV, Buxoro viloyati, Jondor tumanidagi 30-umumta'lim maktabi direktorining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari:

– Bugungi uchrashuv orqali bolalar nashrlari faoliyati bilan yaqindan tanishganimdan juda xursandman. Tan olib aytishimiz kerakki, bu gazeta-jurnallar har bir o'quvchining qo'liga yetib bormayapti. Men faoliyat yuritayotgan maktabda iqtidorli va ijodkor o'quvchilar talaygina. Ularning ijod namunalari tuman nashrlarida chop etiladi. Ayrimlarining she'riy mashqlari hatto mitti kitobcha holida jamlangan. O'sha o'quvchilarimizning ijod namunalari respublika nashrlarida ham chop etilsa, bu ularga yanada ko'proq ilhom bag'ishlardir. Biz ularga shunday imkoniyat yaratib berishga, yoshlariga mos nashrlar bilan do'stlashishlariga yordam beramiz.

ko'proq ilhom bag'ishlardir. Biz ularga shunday imkoniyat yaratib berishga, yoshlariga mos nashrlar bilan do'stlashishlariga yordam beramiz.

OBUNA MAJBURIY EMAS, BU BORADA SHUNCHAKI O'RNAK BO'LMOQ KERAK

Nargis XIDIROVA, Jizzax viloyati, Sharof Rashidov tumanidagi 55-umumta'lim maktabining o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari:

– Bolaligimda pochta qutimizga har kuni turli gazeta-jurnallar kelardi. Uyimizdagi kitob javonidan o'rin olgan bu nashrlar taxlami ziyoli, professor dadamdan bizga meros bo'lib qolgan. Bugun o'zim ham onaman, farzandlarimning bolalar nashrlarini o'qib borishlariga alohida e'tibor qaratganman. Qolaversa, maktabda o'quvchilarimning ham mutolaaga qiziqishlari katta ekanini yaxshi bilaman. Chunki rahbarimizdan tortib har birimiz o'quvchilarimizga o'rnak bo'lib kundalik gazeta-jurnallarni varaqlaymiz. O'quv dargohimizga biror nashr o'z vaqtida kelmay qolsa, kutubxonachidan surishtiramiz. Fursatimiz yetmay qolsa, uyga olib ketib o'qiyimiz, so'ng fikr almashamiz.

BIZGA QADRDON NASHR

Donoxon XO'JAMOVA, Namangan viloyati, Mingbuloq tumanidagi 45-umumta'lim maktabi direktori:

– O'quvchilik yillarimda «Tong yulduzi» gazetasini sevim o'qiganim yodimda. Hozir ham uning har bir yangi soni bilan tanishib borishga harakat qilaman. O'quvchilarimning ham bu nashr bilan do'stlashishlarini istayman. Toki, ular ham ziyoli, dunyoqarashi keng inson bo'lib kamol topishsin. Bolalikdan mutolaaga mehr qo'ygan o'g'il-qizning kelgusida yetuk mutaxassis bo'lishi tayin. Uning kasb tanlashi, kelajak hayotida bolalikda o'qiganlari, albatta, qo'l keladi. Bolalarimizga darslikdagi mavzularni o'qitish bilan kifoyalanmay, gazeta-jurnallardan foydalanib, kengroq bilim bersak, ularning ma'naviy dunyosi kengayadi, so'z boyligi ortadi.



FAXRIDDINGA FAXR BAG'ISHLAGAN BAYRAM

Har gal poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 326-umumta'lim maktabida o'tadigan tadbirga bizlarni mehmon sifatida taklif etishganida, boshimiz ko'kka yetadi. Boisi, ushbu o'quv dargohida tashkillashtiriladigan har qanday bayram nihoyatda zavqli, taassurotlarga boy tarzda o'tadi. Qarangki, o'quvchilar bilan bu galgi uchrashuvimiz ham unutilmas voqealarga boy bo'ldi...

Dastlab, boshlovchilar barchani go'zal kalom bilan qarshi olgach, sahnada dutorchi qiz yig'ilganlarga o'zining eng sevimli kuyini chalib berdi. 9-«G» sinf o'quvchisi Gulgina Shavkatovaning ushbu chiqishini ko'rganlarning dilida «Men ham bir dutor chertsam...», degan ezgu istak tug'ilgan bo'lsa, ajabmas! Yosh g'azalxonlar esa barchamizga bolaligimizda yod olgan g'azal-ruboiylarni

bir takrorlab olish imkonini berdi. Shundan so'ng, bolalar tomonidan «So'zning so'zdan farqi bor» nomli sahna ko'rinishi namoyish etildi. Ushbu badiiy chiqish orqali san'atsevar yoshlar o'z tengdoshlarini hamisha o'ylab, so'z aytmog'ga chorladi.

Tadbirga biz kabi mehmon sifatida taklif etilgan filologiya fanlari nomzodi, dotsent To'liqin Eshbekov o'quvchilarga davlat tilim-



izni puxta o'rganib, chiroyli so'zlashishga odatlanishlarini tayinladi. Navbati bilan

sahnaga chiqqan 5-«A» sinf o'quvchisi Robiya qiz O'tkirjonova ko'z o'ngimizda Navoiy

asarlardagi Guli timsolini gavdalandirishga harakat qildi. Sinfidoshi Faxriddin Faxriddinov esa she'riyat mulkining sultoni obrazini ishonib topshirganlaridan faxrlanib turardi. Ammo, bilsizmi, maktabdagi bu tadbir adabiyot bayramigina emas edi. Shuningdek, 7-«H» harbiy sinf o'quvchilarining harbiy-sport chiqishlari barchani lol qoldirdi.

Biz esa maktab direktori Rustam aka Adhamov, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Nasiba opa Alalova va tadbirga bosh bo'lgan ustoz Farida opa Mahkamovalarga samimiy dil so'zlarimizni izhor etdik.

Sayyora QODIROVA, Jamoliddin ABDULLAYEV



VATAN – AZIZ!

Chamanzori tikon bo'lsa ham,
Quyoshi yo'q osmon bo'lsa ham,
Yoz kelmagan oshyon bo'lsa ham,
Vatan aziz, Vatan tengsizdir.

Suv yetmagan chanqoq bo'lsa ham,
Chanqoq yerda yantoq o'ssa ham,
Daryo yo'g'u buloq bo'lsa ham,
Vatan aziz, Vatan dengizdir.

Kamronbek SOLIBOYEV,
Namang viloyati, Yangiyo'rg'on
tumanidagi 33-umumta'lim
maktabining 9-sinf o'quvchisi

BOBOMGA

Bordir mening bir bobom,
Urushda qatnashganlar.
Dushman bilan olishgan,
Doim olg'a borishgan.

Xavf-xatardan qo'rqmagan,
Vatanin ozod etgan.
Dushmanlar ham yengilib,
Yurtiga qaytib ketgan.

Men katta bo'lganimda,
Vatanimni asrayman.
Bobomga o'xshab men ham,
El ishonchin oqlayman.

Vatanimni sevaman,
Vatanim mening faxrim.
Gullab-yashnasin doim,
Boshimda ona shahrim.

Umidjon OCHILOV,
Navoiy viloyati, Qiziltepa
tumanidagi 26-umumta'lim
maktabining 4-«A» sinf o'quvchisi



SINGILCHAM

Mening opajonim, deb,
Quchadi belingizdan.
Yugurib kelib hatto,
O'padi yuzingizdan.

Kimning singlisi bo'lsa,
Zerikmaydi hech qachon.
Uyi quvonchona to'lib,
Kuni o'tadi shodon.

Go'zal ABDUQOSIMOVA,
poytaxtimizning Mirobod tumanida-
gi 214-umumta'lim maktabining
5-«A» sinf o'quvchisi



KUZNING GO'ZALLIGIN KO'R!

Kuz keldi o'lkamizga,
Rang taratdi nozlanib.
Yerga tushdi yaproqlar,
Oltin kabi tovlanib.

Paxtazorni quvnatdi,
Hosil to'la dalalar.
Qirda o'ynab yuribdi,
Terga botgan bolalar.

Ba'zan esar sho'x shamol,
Yomg'irjonga bo'lib jo'r,
Tabiatning in'omi,
Kuzning go'zalligin ko'r.

Diyora BAXTIYOROVA,
Toshkent viloyati, Yangiyo'rg'on
tumanidagi 27-umumta'lim
maktabining 6-sinf o'quvchisi

TO'RT BAHO

Bugun oldim to'rt baho,
Uyat bo'ldi dilga jo.
Kelib qolgandi uyqim,
Darsni puxta qilmadim.

Bililib qoldi aybim,
Bundan juda uyaldim.
Ammo o'sha to'rt sabab,
Beshlarni oldim oqlab.

Maryamxon TURDIMURODOVA,
Toshkent tumanidagi
23-umumta'lim maktabining 2-«A»
sinf o'quvchisi

«TEMURBEKLAR MAKTABI»

(Davomi.
Boshi o'tgan sonlarda)

TURKUMIDAN

Murod TILLAYEV

KUTILMAGAN TAKLIF

Surayyoga bosh tarbiyachi direktor chaqirayotganini aytganida, negadir «Tinchlikmikin ishqlib?!» deb xavotirga tushdi. Bosh tarbiyachi: «Xabarim yo'q. Nima gap, ishidan biror kamchilik o'tibdimi, deb so'raganimda, yo'q, shaxsiy masala-da, deb qo'ya qoldi. O'zing biror masala-da murojaat qilmovdingmi?» deb so'radi. «Yo'q», dedi Surayyo battar xavotir olib. «Xavotir olma, Abduxoliq Malikovichni bilasan-ku, chumoliga ham ozor bermaydi», deya dalda berdi bosh tarbiyachi.

Surayyo qabulxonaga kirs, kotiba kompyuterda xat yozib o'tirgan ekan.

– Direktor chaqirgan ekanlar? – dedi Surayyo savol ohangida.

– Xabarim yo'q. Hozir yonlarida hech kim yo'q, kiravering.

Surayyo negadir qabulxonadagi oynaga bir qarab oldi-da, direktorning eshigini taqillatib, so'ng qiya ochib:

– Mumkinmi? – dedi.

– Kiring, Surayyo singlim, kiravering,

– dedi direktor keng-mo'l kabinetning to'ridagi kreslodan turib, devorga taqab qo'yilgan divan tomon yurib. – Keling, o'tiring.

Surayyo divanga omonatgina o'tirdi. Sochlariga oq oralagan, o'rta bo'yli, to'laroqdan kelgan Mehribonlik uyi rahbari ham divanga o'tirib:

– Xo'sh, singlim, ishlaringiz qanday? – deb so'radi.

– Rahmat, yaxshi.

– Xo'jayiningiz yarashaylik, demayaptimi mabodo?

– Yo'g'-ey, Abduxoliq Malikovich, u kishi allaqachon boshqaga uylanib, ikkita bolalik ham bo'lishgan.

– Shunaqami? Bu yog'ini surishtirmagan ekanman.

Ko'nglingizni og'ritgan bo'lsam, Xudo haqqi, kechiring.

– Qo'ysangiz-chi, allaqachon ko'nikib ketganman.

– Nega o'zingiz boshqa oila qurmadingiz, haliyam kech emas.

– Farzand ko'rmasam, yana boshqa birovni baxtsiz qilmay, dedim.



– Bu ishingiz chakki bo'libdi. Balki Oллоh farzand ato etarmidi...

Oraga noqulay jimlik cho'kdi. Nihoyat, sukunatni direktorning o'zi buzdi:

– Singlim, sizni chaqirtirganimning sababi – bir taklifim bor edi.

Hozir muhim gap eshitishini ko'ngli sezib, Surayyoning butun vujudi quloqqa aylandi.

– Xabaringiz bo'lsa kerak, tarbiyalanuvchilarimizdan Murodjon Sodiqov «Temurbeklar maktabi»ga kirishni istab, mening nomimga ariza yozgan ekan.

– Ha, men bilan maslahatlashgan edi.

– Bilimli, qobiliyatli bola. Nihoyatda odobli, tartib-intizomli. Shuning uchun tavsiyanomani tayyorlab qo'ydik.

– Abduxoliq Malikovich, Murodjon, albatta, ishonchingizni oqlaydi.

– Bilaman. Shu bolaga mehringiz boshqacha ekanligidan ham xabardorman.

Surayyo gunohkor odamday yerga qaradi.

Direktor unga qarab gapida davom etdi:

– Murodjon o'qishga kirs, o'zi rozi bo'lsa, uni farzandlikka olishni xohlamaysizmi? Bunga qo'limizdan kelgancha yordam bergan bo'lardik.

– Vasiylik organi rozi bo'larmikin? – jonlanib ketib umid bilan so'radi Surayyo.

– Agar Murodjon «Temurbeklar maktabi»ga qabul qilinsa, davlat ta'minotida bo'ladi. Qolaversa, vasiylik organi rahbariyatiga biz ham qarab turmasligimizni, sizga qo'limizdan kelgancha yordam berishimizni aytamiz.

– Bu yaxshiligingizni hech qachon yodimdan chiqarmayman. Bir umr sizdan qarzdor bo'laman.

– Qo'ysangiz-chi, singlim. Aksincha, bizlar sizga o'xshagan mehdirdaryo insonlardan qarzdormiz.

Surayyo direktorning xonasidan go'yoki qanot chiqarib uchib chiqdi. U tezroq Murodjonga niyatini aytib, uni quvontirishni istardi.

(Davomi bor)

**Kuni
kecha poytaxt-
timizning Shay-
xontohur tumanidagi
40-umumta'lim maktabi-
da yangi sport maydon-
chasi foydalanishga
topshirildi.**

Maydon-
chani ochilish
marosimida
O'zbekista-
nda xizmat
ko'rsatgan
yoshlar mu-

musobaqada 1-o'rinni egalladim. Kelajakda Osiyo va jahon chempionatlarida qatnashib, yurtimiz bayrog'ini yuksaklarga ko'tarishni orzu qilaman, — deydi 8-«B» sinf o'quvchisi Javohir Tursunov.

Sport bolalarning sog'lom, tetik bo'lib ulg'ayishida katta o'rin tutadi. Shu bois, maktabda «Sog'lom turmush tarzi tarafdorimiz» deb

HARAKAT, G'AYRAT, SHJOAT

Ulug' bobomiz Abu Ali ibn Sinoning huzuriga bir kishi nimjon va kamharakat bolani olib kelib:

— **Ulug' tabib, o'g'limni shu darddan forig' etsangiz, — deb iltimos qilibdi. Tabib bolaning tomirini ushlab ko'rib:**
— **Ko'proq harakat qilsin, uning kasalini shu bilangina davolash mumkin, xolos. Zero, harakatsiz qolgan a'zolarning quvvati zaiflashadi, — degan ekan.**

MAKTABDA YANGI SPORT MAYDONCHASI OCHILDI

rabbiysi Axbor Imomxo'jayev, O'zbekiston olimpiya terma jamoasi bosh murabbiyi Ravshan Haydarov, «Bunyodkor» futbol klubi Prezidenti Murod Aliyev va jamoa darvozaboni Suhrob Sultonov ishtirok etdi.

— Maktabimizni sportchilar maskani, desam, sira adashmayman. O'quvchilarimiz ichida chempionlar talaygina. Ular har yili respublika miqyosida o'tadigan

nomlangan uchrashuv ham bo'lib o'tdi. Tadbirga dzyudo bo'yicha sport murabbiyi Sherzod aka Ashurov tashrif buyurdilar. Mohir sportchi o'quvchilarga dangasalik qilmasdan har kuni erta tongdan badantarbiya mashg'ulotlari bilan shug'ullanishni maslahat berdi. Ana shundagina inson sog'lom va barkamol bo'lib ulg'ayishini ta'kidladi.

Uchrashuv so'nggida dzyudo



musobaqalarda faol qatnashib keladi, — deydi maktab rahbari Dilluza opa Nizomova.

Men sportning karate turiga qiziqaman. Yaqinda Buxoroda bo'lib o'tgan musobaqada 1-o'ranga sazovor bo'ldim, — deydi 8-«B» sinf o'quvchisi Xadicha Farhodova.

— Ko'p yillardan buyon sportning boks turiga qatnashaman. Yaqinda Farg'onada bo'lib o'tgan

bo'yicha ko'plab musobaqalarda g'olib bo'lib kelayotgan 9-«B» sinf o'quvchisi Omina Shukrullayeva, taekvando bo'yicha 3 karra O'zbekiston chempioni, 8-«V» sinf o'quvchisi Ismoil Yo'ldoshevlar sahnada o'zlarining ko'rgazmali chiqishlari bilan barchaning olqishiga sazovor bo'ldi.

Nigora ABDUNAZAROVA



Darhaqiqat, harakat, g'ayrat, shijoat, sport bilan shug'ullanish salomatlik manbai hisoblanadi.

Poytaxtimizning Olmazor tuman xalq ta'limi bo'limi tomonidan

224-umumta'lim maktabida «Ustoz salomatligi — ta'lim sifatini garov» shiori ostida sport musobaqalari tashkil etildi. Sport-



ning 5 ta turi bo'yicha o'tkazilgan bellashuvlarda tumandagi 36 ta ta'lim muassasasidan 200 nafarga yaqin ustozlar, yoshlar yetakchilari va psixologlar ishtirok etdi. Nasiba Nazarova, Mirvohid To'xtaxojayev stol tennis, Zahro Qo'shboyeva, Sherali Rustamov shaxmat, Ma'mura Nishonova, Yulduz Jo'rayeva voleybol bo'yicha faxrli o'rinlarni egallashgan bo'lsa, Muhsin Turpov, Farid To'rayev, Zohid Mamaturpov kabi ustozlar futbol musobaqasida chaqqonlikni qo'ldan berishmadi.

— Futbol musobaqalari juda qiziqarli o'tdi, — deydi 243-umumta'lim maktabining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Akrom Rahmonov. — Sport bilan shug'ullanish kishiga zavq bag'ishlashiga yana bir bor amin bo'ldim. Ayniqsa, g'oliblik uchun kurashish jamoamizni birdamlikka chorladi. Men ushbu musobaqada qatnashish istagini bildirgan barcha ishtirokchilarni o'z salomatliklarining qadriga yetadigan ustozlar ekanliklariga yana bir karra amin bo'ldim.

Aziz o'quvchilar! Ustozlar ota-bobolarimiz an'alarini davom ettirib, sog'lom, tetik, bardam bo'lishga intilayotgan ekan, siz ham ulardan ibrat oling.

Nodira NAZAROVA

G'OLIBGA — VELOSIPEDI!

Respublikamizda har oyning uchinchi juma kuni — «Avtomobilsiz kun» deb belgilanganidan xabaringiz bor.

Shu munosabat bilan Farg'ona viloyatining Beshariq tumanida joriy yilning 19-oktabr kuni «Avtomobilsiz kun» loyihasi doirasida tuman xalq ta'limi bo'limi, O'zbekiston Yoshlar ittifoqi tuman Kengashi, tuman yo'l harakati xavfsizligi hamda tuman jismoniy tarbiya va sport bo'limi hamkorligida sportning yugurish turi bo'yicha «Yoshlar marafoni» o'tkazildi. 450 nafar yoshlar ishtirok etgan marafonda marraga birinchi bo'lib yetib kelgan 13-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi Asadbek Mamajonov velosiped bilan taqdirlandi.

Muhammadsodiq ALIMOV



Shodmon OTABEK tarjiması

MASHHURLAR HAYOTIDAN

Albert Eynshteyn Charli Chaplinning filmlarini yaxshi ko'rar, bu aktyorga ixlosi baland edi. Kunlardan bir kun u aktyorga shunday maktub yuboradi: «Sizga qoyilman, san'atingiz hammaga tushunarli. Siz kelajakda buyuk odam bo'lasiz. Eynshteyn».

Oradan ko'p o'tmay javob xati keladi: «Men esa Sizga qayta-qayta qoyil qolaman. Sizning nisbiylik nazariyangizni jahonda kamdan-kam odam tushunadi, lekin baribir Siz ulug' odamsiz. Chaplin».

Mashhur rus kimyogari Beketov o'z xonasida ishlab o'tirganda, xizmatkori hovliqib kiradi:

– Nikolay Nikolayevich! Kutubxonangizda o'g'rilar yurishibdi.

Parishonxotir olim boshini ko'tarib so'rabdi:

– Ular qanday kitoblarni o'qishyapti?

KICHKINA DEMANG BIZNI...

Somsa pishirayotgan onasining ishini kuzatib turgan bola so'rabdi:

– Oyijon, nega men bilan gaplashmayapsiz?

– Nima deb gaplashishim kerak, bolam?

– Mana bu somsalardan yegin, jon bolam, deb-da!

Qorovul daraxtga chiqib olgan bolaga baqiryapti:

– Hoy bola! Qo'lga tushding-ku! Qani, darrov pastga tushib, dadangni chaqir!

Bola pastga tushdi va tepaga qarab qichqirdi:

– Dada, siz ham pastga tusharkansiz. Qorovul amaki sizni so'rayapti.

BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!

1. Xonadonlarda boqiladigan eng sayroqi parranda. 2. Sayyoramizdagi eng katta yarim orol. 3. Eng aziz ne'mat. 4. Vatanimizdagi hududi eng katta viloyat. 5. Eng dastlabki suv transporti vositasi. 6. Boksda eng kuchli zarbdan ro'y beradigan holat. 7. Markaziy Osiyodagi eng katta shahar. 8. Olam ahlining eng azaliy orzusi. 9. Insonning borliqqa oid eng ko'p ma'lumotga ega bo'lishdagi tana a'zosi. 10. Bobotog' tizmasida joylashgan O'zbekistonning eng baland tog' cho'qqisi. 11. Eng qadimiy poytaxt shahar. 12. Vatanimiz hududida bunyod bo'lgan eng ko'hna kitob. 13. Eng ko'p sportchi ishtirok etadigan xalqaro musobaqa. 14. Tebranuvchi jismning muvozanat holatidan eng olis holatigacha bo'lgan masofa. 15. Yer sharining eng shimoliy nuqtasi joylashgan hudud. 16. Eng sersuv daryo. 17. Eng katta ilon. 18. Janubiy Amerikaning eng katta cho'l hududi. 19. Zaminning eng janubiy hududi. 20. Arab alifbosidagi eng birinchi harf. 21. Dunyoda eng ommalashgan sport o'yini. 22. Futbol bo'yicha o'tkazilgan jahon chempionatidagi eng birinchi gol to'purari. 23. Eng uzun daryo. 24. Kosmosga eng birinchi bo'lib parvoz etgan jonivor laqabi. 25. Toshkentda ishlab chiqarilgan eng ko'p o'rinni samolyot markasi. 26. Yer sharidagi eng katta materik.



Tuzuvchi: Foziljon O'RIPOV

PSIXOLOGIK TEST

Ushbu kichkintoylardan qaysi birini qiz bola deb o'ylaysiz?

A – variantini tanlagan bo'lsangiz, siz haqiqiy ratsionalizatorsiz. Hayotingizdagi har qanday vaziyatni tushunishingizda juda ehtiyot bo'lishingiz kerak. Siz qoidalarga rioya qilishni yoqtiradigan insonsiz. Atrofingizdagi odamlar sizni qonunni buzolmaydigan, namunali fuqaro deb hisoblaydi!

B – variantini tanlagan bo'lsangiz, unda siz san'atkor bo'lish uchun tug'ilgansiz! Miyangiz doim qiziqarli va ijodiy g'oyalar bilan to'la. Agar chizish ko'nikmalaringizni rivojlantirsangiz, bu sohada ham muvaffaqiyat qozonishingiz mumkin. Eng asosiysi, sizni o'rab turgan hamma narsadan ilhom olishni bilishingiz kerak.



C – variantini tanlagan bo'lsangiz, siz uchun to'siqlar tahdid solmaydi, chunki ular sizning fe'l-atvoringizni yanada toblaydi. Siz har doim har qanday holatda qanday harakat qilishni bilasiz va vaziyatlarga moslashishda qiynalmaysiz. Atrofdagi odamlarni diqqat bilan kuzatasiz. Bu juda foydali mashg'ulot.

D – variantini tanlagan bo'lsangiz, unda siz insonlarda faqat eng yaxshi fazilatlarini ko'radigan juda mehribon insonsiz. Qanday qilib kechirish kerakligini bilasiz, chunki har bir kishi xato qilishga haqli. Boshqalarga yordam berishdan mamnunsiz. Siz uchun asosiy maqsad va dalarangizni bajarishdir. Ko'rib turganingizdek, ushbu testdagi tanlovingiz sizning shaxsiyatingiz haqidagi muhim ma'lumotlarni aytib berishi mumkin. O'ylaymizki, bu siz uchun foydadan xoli bo'lmaydi.

Internet manbaalari asosida
Sh. TOSHNIYOZOV tayyorladi

8

29-oktabr 2018

Tong yulduzi

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir
Feruz A'DILOVA

Gazeta O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Qahramon QURONBOYEV,
Alisher SA'DULLAYEV,
Laziz TANGRIYEV,
Murtazo SULTONOV,
Feruz JALILOVA,
Ashurali JO'RAYEV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib).

Navbatchi muharrir
Sayyora QODIROVA

Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li

Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosma-
xonasida chop etildi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifalli
chop etilishiga bosmaxona mas'ul.
Manzillim va bosmaxona manzili:
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi,
30-uy. Indeks: 100011.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz
Adadi – 25714
Buyurtma – V2619

Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi.
mualliflarga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi
uchun obunani rasmiylashtirgan
tashkilot javobgar.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
Bahosi kelishilgan narxda.
Gazeta haftaning dushanba kuni
chop etiladi.
Topshirish vaqti – 18:00
Topshirildi – 18:00
Tel./faks: (99871) 244-63-08